
G'ALABA MUBORAK OYJAHON!

«**Ona tili - millat g'ururi**» shiori ostida o'tkazilayotgan insholar tanlovining navbatdagi g'oliblari aniqlandi.

Joriy yilning 5 may kuni viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida navbatdagi insholar tanlovi o'tkazildi. Jumladan mazkur insholar tanloviga, tumanimizdagi maktablarning o'quvchilari ham jalb qilindi. Tanlovda, ta'lim o'zbek tilida o'qitiladigan sinflarda ona tilidan, 9-sinflar uchun «**Turkiy tillar oilasi va o'zbek tili**» mavzusida, 10-sinflar uchun «**O'zbek tilining boyish manbalari**» mavzusida, 11-sinflar uchun «**Mahmud Qoshg'ariy - ilk tilshunos olim**» mavzulari tanlab olindi.

O'tkazilgan insholar tanlovida, hakamlar hay'ati qarori bilan 10-sinflar o'rtasida, Qo'shtepa tumanidagi 2-IDUMning 10-sinf o'quvchisi **Oyjahon Mo'sinjonova** Farg'ona viloyati umumta'lim maktablari o'rtasida faxrli 2-o'rinni egalladi.

Tuman hokimligi va tuman Xalq ta'limi bo'limi tomonidan, **Oyjahon Mo'sinjonovaga** hamda 2-IDUM jamoasiga, tumanimizga taqdim etgan g'alabasi uchun minnatdorchilik bildiriladi.

U. Xolmatov,

tuman hokimining maslahatchisi.

2020-05-08 13:47:19